



VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA KENG JAMOATCHILIKNING HAMKORLIGI

G'ozibekov To'liq Habibullaevich

Maxsus kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19330678>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 25-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 30- mart 2026 yil

KEY WORDS

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – yoshlar tarbiyasi, ularning barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iborat. Zero, yoshlar–kelajagimiz egalari, davlat va jamiyat taraqqiyotining tayanchi, farzand tarbiyasi, kabi fikrlar aks ettirilgan.

ABSTRACT

Ushbu maqolada voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari, ularning ijtimoiy va ma'naviy omillari chuqur tahlil qilingan. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashda ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyati, ularning asosiy vazifalari hamda bu jarayonda keng jamoatchilik, xususan, mahalla, maktab, ota-onalar va OAVning hamkorligi zarurligi yoritilgan. Maqolada soha mutaxassisleri va olimlar fikrlariga tayangan holda, jinoyatning oldini olishga doir aniq tavsiyalar ilgari suradi.

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi" deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi". Sh.M.Mirziyoev

Bugun yoshlar tarbiyasi va ularni ilmiy, omilkor farzand sifatida kamolga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bola tarbiyasi bilan kichik yoshidan boshlab shug'ullanish masalasiga katta e'tibor qaratilib, respublika miqyosida barcha shart-sharoiti bor bog'chalar tashkil etilishi, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida hamda oliy ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar – barchasi farzandlar tarbiyasi, ertangi kun uchundir. Amalga oshirilgan islohotlar haqida uzoq gapirish shart emas, chunki ularning natijasini barcha ko'rib turibdi. Lekin, bugun yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan holatlar ham bor va bu borada ayrim mulohazalarni aytish o'rinlidir. Zero, donishmand bobomiz Yusuf Xos Hojib yomon, yomonlikni har kuni tahqirla, yaxshi, yaxshilikni har kun taqdirla, deb bejiz aytmagan. Barchaga ma'lum, bugun axborot tayyorlash va tarqatishga monelik yo'q. Har kim turli usulda axborot tayyorlashi va tarqatishi mumkin.

Faqat, axborot tayyorlash va tarqatishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlarimizga ko'ra, har qanday shaxs inson huquqi va qadr-qimmatiga hurmat

bilan qarashga burchli ekanligi doim yodimizda bo'lmog'i darkor. Har qanday axborot tarqatuvchi tarqatayotgan ma'lumoti uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olishi, shuningdek, ushbu material o'qirman yoki ko'rarmanga nima berishi yuzasidan o'z vijdoni oldida javob berishi lozim.

Ommaga yetkazilayotgan axborotning sifati, nimaga qaratilgani, ya'ni, g'oyasi uni tayyorlovchining bilimi, dunyoqarashi, intilishi va ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq ekanligi hech kimga sir emas.

Afsuslar bo'lsinkim, bugun internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan xabarlarning barchasini ham insoniyat uchun ma'lum ma'noda kerakli yoki jamiyat hayoti uchun zarur yoki foydali, deya olmaymiz.

Aksincha, ayni paytda internet tarmoqlari orqali ko'proq xiyonat, fahsh, jaholat haqidagi, hatto mazmunini tilga ham olib bo'lmaydigan turli shov-shuvli xabarlar, ma'naviyatimizga butkul yot ma'lumotlar tarqatilmoqda. Hatto ayrimlar muomala madaniyatini butkul unutgan holda odob-axloq qoidalariga zid ravishda bir-birini ochiq haqoratlagan xolda chiqishlar qilmoqda-ki, bunga befarq, tomoshabin bo'lib qarab turib bo'lmaydi.

Tahliliy qaraganda, fahsh, zo'ravonlik yoki ig'vodan iborat ma'lumotni tarqatayotganlarning maqsadi bitta, u ham bo'lsa "layk" yig'ish, o'quvchisini ko'paytirish, moddiy manfaat ko'rish. Tayyorlagan materialining ko'pchilikka, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir etishi bilan ularning ishi yo'q. Ular uchun kimningdir shaxsiy fojiasidan foydalanish uyat emas.

Ushbu axborot tarqatuvchilarda, "Bu tayyorlagan materialimdan odamlarga nima naf? Men o'zi nimani targ'ib qilayapman? Buni farzandim, ayolim yoki ota-onam ko'rsa, nima deydi?", degan o'y bo'lganida, qani edi?!...

Achinarlisi, ushbu tarqatilayotgan ma'lumotlarni barcha, shu jumladan, hali oq-qoraning farqiga bormaydigan farzandlarimiz ham ko'rayotganida! Ularda, "shunday qilish mumkin ekan", degan tushuncha shakllanayotganida va ularning asta-sekin azaliy qadriyatlarimizdan uzoqlashib borayotganida! Alal-oqibat ota-bola, ona-qiz, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga putur yetayotganida!

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning bosh omili ham ana shunda. Ya'ni biz kattalar ularning tarbiyasiga be'etiborligimiz natijasi emasmi?

Zero, ming yilliklarga borib taqaluvchi, asrlar sinovidan, ota-bobolarimizdan o'tib kelayotgan qadriyatlarimiz toptalishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'zbekona muomala, andisha, hurmat, an'ana, bir so'z bilan aytganda, o'zligimizga, yoshlar tarbiyasi va ertangi kunimizga bunday munosabatda bo'lishga xech kimning xaqqi yo'q. Kimdir, bunday salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlarni tarqatayotganlar emas, ko'rayotganlar aybdor, ko'rmasin, olam guliston, deyishi ham mumkin.

Psixologiyadan ma'lumki, taqiqning o'zi qiziqishni keltirib chiqaradi. Shuning uchun "birgina ko'rmanglar", degan bilan masala hal bo'lib qolmaydi. Yana, bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz, hatto maktab o'quvchisi ham internet tarmoqlarining faol foydalanuvchisi ekanligi ham hech kimga sir emas.

Ukalarimizdan biri oila, farzand tarbiyasi borasidagi suhbatimiz asnosida, o'n to'rt yoshga to'lib-to'lmagan o'g'li ochiq fahsh aks etgan videolavhani telefoniga (adashib) tashlab yuborganligini so'zlay turib, ko'ziga yosh olib, "bolam bu yoshda shu narsani ko'rishi kerak emas edi, u ma'naviy jarohat oldi, buni endi qanday tuzatib bo'ladi", deb afsuslandi.

Darhaqiqat, yoshlarimizning ko'ngil mulkiga, dunyoqarashiga salbiy jarohat yetkazishning, axborot texnologiyalari orqali tarqatilayotgan milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan turli-tuman hayosizlik, ig'vo, jaholat, zo'ravonlik kabi illatlarning singdirilishi va shu yo'l bilan ularning ongi zaharlanishining oldini olish eng dolzarb masaladir.

Ayniqsa, ularni internet kanallari va televidenie orqali namoyish etilayotgan videomahsulotlarning salbiy ta'siridan asrash masalasi o'ta muhimdir. Zero, ko'pgina xorij kinofilmlarida bizning asriy ma'naviyatimizga yot g'oyalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, er-xotin o'rtasidagi bir-biriga hurmat, sadoqat o'rniga bir-birini mensimaslik, hurmatsizlik va xiyonat salbiy yondoshilgan holatda emas, aksincha oddiy holat sifatida yoritilayotgani nafaqat yoshlar ayrim katta yoshlilar ongiga ham asta-sekinlik bilan ta'sir etishi tabiiy.

Shu o'rinda, yoshlarni qo'ya turaylik, salbiy targ'ibotning katta yoshlilar ongiga ta'siri borasida ham hayotiy bir holatni keltirib o'tish joiz. "Ota" qisqa metrajli filmi ssenariysi ustida ishlash jarayonida rejissyor Dilmurod Masaidov o'zi eshitgan, hayotda bo'lgan bir voqeani gapirib bergan edi.

Tanishlaridan biri ishdan qaytib uyiga kirsa, turmush o'rtog'i namoyish etilayotgan chet el serialini berilib ko'rayotgan ekan-ki, hatto turmush o'rtog'ining kirib kelganini ham sezmay qolibdi. Serialda eri bor ayol begona erkak bilan uchrashib turgan joyga ayolning eri kelayotgan sahnani ko'rayotgan ayoli, filmdagi xiyonatkor ayolga qarata "Qoch, qoch tez, ering kelayapti", debdi.

Buni eshitgan er xotiniidan "Nega sen xiyonatkor ayol tarafini olyapsan?", deb so'ragan ekan. Yana savol tug'iladi, ajdodlarimiz avaylab ardoqlab kelgan qadriyatlarimiz – sharqona sharm-hayo, uyat, or-nomus degan tushunchalar ham bugun ayrimlarimizdan begonlashib borayotgani sabablari nima-da, yoshlarimiz "bunday madaniyatni" qaerdan o'rganmoqda?

Albatta, ota-onasidan emas. Internet va ayrim teleyulduzlar ko'rsatayotgan o'rnakning natijasi bu, shunday emasmi?

Ommaviy axborot vositalarida berilgan nafaqat ma'lumot, oddiy bir sahna ko'rinishi yoki aytaylik unda chiquvchining kiyinishi, o'zini tutishi, nutqi boshqalar uchun o'rnak manbai ekanligini unutmashimiz keark. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali ma'naviyatimizga qilinayotgan tajovuzlardan yoshlarni asrash juda dolzarblashdi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidagi "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", degan ko'rsatmalarga jiddiy e'tibor qaratish zarur¹.

Haqiqatdan ham, ta'lim va tarbiya masalasi o'ta muhim. Ayniqsa, bugun axborot tarqatish chegara bilmas darajaga yetgan bir paytda, biz ushbu masalaga befarq qarasak, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasiga bee'tibor bo'lsak, ular ma'naviyatida milliy qiyofani asrash choralari ko'rmasak, ertaga birgina "bu noto'g'ri, bu mumkin emas", degan tushuntirishlarimiz misqolcha xam naf bermasligi aniq. Ma'naviy tarbiyaga salbiy ta'sir – bu ertangi kunimizga, millatimiz kelajagiga xiyonat deb baholanmog'i joiz.

Keng jamoatchilikning ishtiroki

1. ¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil yakunida Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

Ichki ishlar organlarining faoliyati samarali bo'lishi uchun keng jamoatchilik – ya'ni mahalla faollari, ta'lim muassasalari, diniy idoralar, OAV va NNTlar ham bu jarayonda faol qatnashishi kerak. Ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Mahalla faollari. Har bir hududda balog'atga yetmaganlar bilan ishlaydigan mas'ul shaxslar mavjud bo'lib, ular bolalar va ularning oilalarini nazorat ostida ushlab turish, ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatish, muammoli yoshlarni to'garak va sport mashg'ulotlariga jalb etishi zarur.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ammo bugun kishilarimizga ana shu hakikatni aytsangiz sizga: "Nima qilay, ishlamasang bo'lmasa!", "Ko'ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishiyu, kiyim kechagi ...", "Ha endi o'zi omon bo'lsa, tarbiyasi bir gap bo'lar..."

Yo'q, tarbiya "bir gap bo'ladigan" narsa emas. Uning uchun jon kuydirish shart. Mol dunyo kiyim kechakka hirs qo'yish dardidan forig' bo'lib, tarbiya bilan shug'ullanish kerak.

Go'yo ko'pchilikning farzand tarbiyasi bilan band bo'lishga ortiqcha vaqti yo'q emish. Vaholanki, tarbiya masalalari bilan ortiqcha vaqtda emas, har daqiqada shug'ullanish darkor. Olimlarning aniqlashicha, bir sutkada farzand tarbiyasi uchun faqatgina o'n ikki daqiqagina vaqt ajratadigan ota-onalar bor ekan. Bu daqiqalar ham asosan dasturxon atrofida o'tirganda, bola ko'chaga chiqayotganda, maktabga ketayotgandagi beriladigan kichik tanbehlariga sarf bo'larkan, xolos.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".

Aziz ota onalar, bu borada olib borayotgan ishlaringizga bir nazar tashlab ko'ring-a?! Siz buni qay daraja uddalayapsiz, farzandingizga, uning tarbiyasiga qancha vaqt ajratyapsiz? Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi –kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlarni tarbiyalash bo'lar ekan, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi". Shunday ekan, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borish talab etiladi. Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy

talabdan kelib chiqqan holda, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Muhtaram birinchi Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida farzandlarimizning ma'naviy tarbiyasi haqida alohida to'xtalib: "Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin", – degan fikrlarini doimo yodda tutishimiz kerak. Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an'analariga sodiq bo'lish har bir insonning vatan oldidagi burchi deb hisoblaymiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2024y.
2. Prezident Asarlar to'plami
3. Saidov A. A. Huquqiy davlat asoslari va huquqiy madaniyat. — Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2019.
4. "Huquqiy axborot" portali – <https://lex.uz> (voyaga yetmaganlar huquqlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari).
5. Ismoilov I. M. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-psixologik yondashuvlar. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Putilova E. Yu. Kriminologiya: Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi. — Moskva: Yurayt nashriyoti, 2017.
7. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va farovonlik sari. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi axborot byulleteni, 2024-yil, 2-son